

O‘ZBEK TILIDA YANGI SO‘ZLAR (NEOLOGIZMLAR)NING PAYDO
BO‘LISHI

QO‘QON UNIVERSITETI ANDIJON FILIALI
XORIJIY TILLAR KAFEDRASI KATTA O‘QITUVCHISI
(PhD) AXMEDOVA GULXUMOR NODIRBEK QIZI
IQTISODIYOT VA PEDAGOGIKA FAKULTETI
PSIXOLOGIYA YO‘NALISHI 25-01 TALABASI
FATTOHJONO‘VA SEVINCH

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tilida neologizmlarning paydo bo‘lishi jarayoni, ularning shakllanishi sabablari va asosiy manbalari keng yoritilgan. Yangi so‘zlarning yuzaga kelishida ilm-fan va texnologiya taraqqiyoti, ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar, globallashuv jarayonlari hamda xorijiy tillarning ta‘siri muhim omil sifatida tahlil qilinadi. Maqolada neologizmlarning leksik va semantik turlari, shuningdek, tilning ichki imkoniyatlari asosida so‘z yasash yo‘llari haqida batafsil ma‘lumot beriladi. Bundan tashqari, yangi so‘zlarning til lug‘at boyligini oshirishdagi o‘rni, ularning jamiyat hayotidagi yangiliklarni ifodalashdagi ahamiyati ilmiy asosda yoritilgan.

Annotation: This article provides a detailed analysis of the process of the emergence of neologisms in the Uzbek language, their causes of formation, and main science and technology, socio-political changes, globalization processes, and the influence of foreign languages are examined as key factors in the creation of new words. The article also presents comprehensive information about the lexical and semantic types of neologisms, as well as word-formation methods based on the internal resources of the language. In addition, the role of new words in enriching the vocabulary of the language and their importance in expressing new phenomena in social life are scientifically explained.

Kalit so‘zlar: neologizm, o‘zbek tili, yangi so‘zlar, leksikologiya, til taraqqiyoti, so‘z yasash, semantik neologizm, leksik neologizm, globallashuv, xorijiy so‘zlar, zamonaviy til.

Keywords: neologism, uzbek language, emerging vocabulary, lexicology, linguistic development, word-formation processes, semantic neologism, lexical neologism, globalization, borrowed foreign words, modern language.

Til - jamiyatning eng muhim aloqa vositasi bo‘lib, u doimo rivojlanib boradi. Har bir davr o‘zining ijtimoiy, siyosiy va texnologik o‘zgarishlari bilan birga tilga ham yangi so‘zlarini olib kiradi. Bunday yangi birliklar neologizmlar deb ataladi. O‘zbek tilida ham neologizmlar paydo bo‘lishi tabiiy jarayon bo‘lib, ular tilning boyishi va zamonga moslashuvni ta‘minlaydi. O‘zbek tili ham boshqa tillar kabi bu jarayonda chetda emas. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarida yuz bergan o‘zgarishlar tilimizning lug‘at boyligiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi. Yangi boshqaruv tizimlari, iqtisodiy islohotlar, ta‘lim va texnologiya sohalarida yangiliklar tilimizga kirib keldi yoki mavjud so‘zlar yangi ma‘noda qo‘llanila boshladi.

O‘zbek tilida neologizmlarning paydo bo‘lish jarayoni murakkab va ko‘p omilli hodisa bo‘lib u tilning ichki rivojlanish qonuniyatlari hamda tashqi ijtimoiy ta‘sirilar bilan uzviy bog‘liqdir. Yangi so‘zlar nafaqat yangi predmet va hodisalarni nomlash ehtiyojdan kelib chiqadi, balki mavjud tushunchalarni yanada aniqroq, ixchamroq ifodalash zarurati natijasida ham yuzaga keladi. Birinchi navbatda, neologizmlar paydo bo‘lishining asosiy manbalaridan biri ilm-fan va texnologiya taraqqiyotidir. Axborot texnologiyalari, sun‘iy intellekt, raqamli iqtisodiyot kabi sohalarning jadal rivojlanishi natijasida, tilimizda "platforma", "mobil ilova", "onlayn ta‘lim", raqamlash tirqish, "sun‘iy intellekt" kabi ko‘plab yangi atamalar kirib keldi. Bu so‘zlar dastlab tor doirada qo‘llanilgan bo‘lsa, hozirgi kunda keng ommaga tushunarli bo‘lib bormoqda. Ikkinchi muhim omil - xorijiy tillarning ta‘siri. Global aloqa vositalarining kengayishi natijasida o‘zbek tiliga asosan, ingliz tilidan ko‘plab so‘zlar o‘zlashtirishmoqda. Masalan: "marketing", "menejer", "startup", "Blogger" kabi birliklar kundalik nutqda faol ishlatilmoqda. Ayrim hollarda bu so‘zlar o‘zbek tilining fonetik va grammatik qoidalariga moslashadi, ayrimlari esa o‘z shaklini deyarli saqlab qoladi. Uchinchi omil - ijtimoiy siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlar. Jamiyat hayotidagi yangilanishlar yangi tushunchalarni yuzaga keltiradi. Masalan :”elektron hukumat”, “ochiq byudjet”, “investitsiya muhit”, “tadbirkorlik subyekti” kabi birikmalar mustaqillikdan keyingi davrda faol qo‘llanila boshladi. Bu birliklar davlat boshqaruvi va iqtisodiy tizimdagi yangiliklarni ifodalash uchun zarur bo‘ldi. To‘rtinchi omil - tilning ichki imkoniyatlari asosida so‘z yasash tizimiga ega bo‘lib, yangi so‘zlar ko‘pincha qo‘shimchalar yordamida hosil qilinadi. Masalan : “raqam” so‘zidan “raqamli”, “raqamlashtirish”, “tadbirkor” so‘zidan “tadbirkorlik” kabi yangi birliklar yaratilgan. Bu usul milliy tilning o‘ziga xonligini saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Neologizmlar tuzilishi va mazmuniga ko‘ra bir necha turlarga bo‘linadi. Leksik neologizmlar - butunlay yangi so‘zlar bo‘lsa, semantik neologizmlar -mavjud so‘zlarning yangi ma‘noda ishlatilgan bo‘lsa, hozirda u internet tizimini ham anglatadi. Bundan tashqari, individual neologizmlar ham mavjud bo‘lib, ular asosan badiiy adabiyotda uchraydi va muayyan muallif uslubini ifodalaydi. Shu bilan bir, neologizmlarning tilga kirib kelishi doim ham bir xil darajada qabul qilinmaydi. Ayrim yangi so‘zlar tezda ommalashib, tilning faol qatlamiga o‘tadi, boshqalari esa vaqt o‘tishi bilan iste‘moldan chiqib ketadi. Bu jarayon tilning tabiiy tanlanish mehanizmi bilan bog‘liqdir. Neologizmlar o‘zbek tilining boyishi va zamonaviylashuvida muhim rol o‘ynaydi. Ular orqali yangi bilimlar, texnologiyalar va ijtimoiy hodisalar ifodalanadi, til esa jamiyat taraqqiyoti bilan hamnafas rivolanadi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tilida neologizmlarning paydo bo‘lishi tabiiy va uzluksiz jarayon bo‘lib, u jamiyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liqdir. Yangi so‘zlar ilm-fan, texnologiyalar, ijtimoiy - siyosiy va madaniy sohalardagi o‘zgarishlar natijasida yuzaga keladi hamda tilning zamonaviy hayotga moslashuvini ta‘minlaydi. Neologizmlar til lug‘at boyligini oshiribgina qolmay, balki yangi tushunchalarni aniq va ixcham ifodalash imkonini beradi. Ular orqali insonlar o‘z fikrini zamonaviy va tushunarli shaklda bayon etadi. Shu bilan birga, yangi so‘zlarning tilga kelishi jarayonida ularni me‘yoriy qo‘llash, milliy til xususiyatlarini saqlash muhim ahamiyatga ega. Neologizmlar o‘zbek tilining

rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Ularni ilmiy jihatidan o‘rganish va to‘g‘ri qo‘llash til madaniyatini yuksaltirishga xizmati qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. -Toshkent. “O‘zbekiston” 2021.
2. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. - Toshkent:”Fan”, 2006.
3. Hojiyev A. O‘zbek tili leksikologiya. - Toshkent : “O‘qituvchi”, 2001.
4. G‘ulomov A. Asqarov M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. -Toshkent: “O‘qituvchi” 2001.
5. Madaliyev A. Tahriri ostida. O‘zbek tilining izohli lug‘ati- Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2006-2008.
6. Begmatov E. Hozirgi o‘zbek adabiyotining leksikasi. - Toshkent: “Fan”, 1983.